

## 65. Nostandart shakllarning perimetri



Yondosh mavzu:  
yer maydonlari

Ko'pburchak, perimetr.




1. Qaysi shaklning perimetrini topib bo'lmaydi?



2. Fermer o'z yerining atrofini devor bilan o'ramoqchi. Buning uchun necha metr devor qurish kerak bo'ladi?



3. Bu shakllarda qanday umumiylik bor va nimasi bilan farq qiladi?




Bu shakllarning perimetrini toping. Nimani sezdingiz?


## 65. Nostandart shakllarning perimetri



Har qanday ko'pburchakning perimetri tomonlari uzunligining yig'indisidir. Burchaklari kesik to'rtburchakka o'xshagan shakllarning perimetri shu to'rtburchak tomonlari uzunligining yig'indisiga tengdir.



4. Bu shakllarning perimetrini toping.



5. Fermer 620 ta olma ko'chati, undan 317 ta kam nok ko'chati ekdi. Jami nechta daraxt ekilgan?



6. Taqqoslang.

$$3 \text{ m } 7 \text{ dm } 2 \text{ cm} + 4 \text{ m } 5 \text{ dm } 6 \text{ cm} \square 8 \text{ m}$$

$$7 \text{ m } 3 \text{ dm } 2 \text{ cm} - 2 \text{ m } 7 \text{ dm } 5 \text{ cm} \square 4 \text{ m}$$

$$45 \text{ dm } 7 \text{ cm} + 1 \text{ m } 8 \text{ cm} \square 6 \text{ m } 3 \text{ cm}$$

$$97 \text{ dm } 3 \text{ cm} - 1 \text{ m } 2 \text{ dm} \square 7 \text{ m } 3 \text{ dm } 1 \text{ cm}$$

## 65. Nostandart shakllarning perimetri



7. Teskari amalni bajarib, noma'lum kattalikni toping.  
 $x$  sonini 27 ga qo'shsak, 386 hosil bo'ldi.  
 $y$  sonini 7 ga ko'paytirsak, 4123 hosil bo'ldi.  
 $z$  sonidan 183 ni ayirsak, 7000 hosil bo'ldi.  
 $t$  sonini 18 ga bo'lsak, 52 hosil bo'ldi.




8. Tenglamalarni yeching.  
 $(m - 48) : 51 = 63$


$$455 : (d + 64) = 5$$



9. Ikkita zina bir joydan boshlanib, bir xil balandlikka olib chiqadi. Lekin birining zinapoyalari kattaroq, ikkinchisniki esa kichikroq. Qaysi zinaga uzunroq gilam-poyandoz kerak bo'ladi?



10. Dala hovli devorining uzunligini toping.



11. Hisoblang.

$$6 \text{ m } 1 \text{ dm } 9 \text{ cm} + 2 \text{ m } 7 \text{ dm } 8 \text{ cm} \square 9 \text{ m}$$

$$5 \text{ m } 1 \text{ dm } 8 \text{ cm} - 3 \text{ m } 2 \text{ dm } 4 \text{ cm} \square 2 \text{ m}$$

$$18 \text{ dm } 9 \text{ cm} + 3 \text{ m } 5 \text{ cm} \square 5 \text{ m } 4 \text{ cm}$$

$$84 \text{ dm } 2 \text{ cm} - 3 \text{ m } 6 \text{ dm } 2 \text{ cm} \square 4 \text{ m } 6 \text{ dm } 2 \text{ cm}$$